

«MAMLAKATIMIZDA YOSHLAR SIYOSATI VA YOSHLARGA E'TIBOR VA YANGI IMKONIYATLAR»

Bozorov Otabek Erkinovich

*Jahon iqtisodiyoti va diplomatiya universiteti
Xalqaro munosabatlar fakulteti 3-kurs talabasi*

Annotasiya: Ushbu maqolada O'zbekiston Respublikasida Muhtaram Prezidentimizning olib borayotgan oqilona siyosatlari biz yoshlar nigohida.

Kalit suzlar: Milliy siyosat,davlat xokimiyati,xalqaro munosabatlar,Prezident farmoishlari,Ta'lim sohasi. Yoshlar masalasi.

Siyosat - Davlat xokimiyati shakillarini amalga oshirish;davlat xokimiyatining mamlakatni boshqaruvda va xalqaro munosabatlarda tutgan yo'li; davlatni boshqarish san'ati, barqaror qabul qilish va oqilona natijalarga erishish uchun ataylab ishlab chiqilgan ko'rsatmalar tizimidir. Siyosat niyat bayonoti bo'lib,protsedura yoki protokol sifatida amalga oshiriladi.Siyosat,odatda,tashkilotichidagi boshqaruv organi tomonidan qabul qilinadi.Siyosat sub'ektiv va ob'ektiv qarorlar qabul qilishda qo'llaniladigan siyosatlar,odatda,yuqori boshqaruvda bir qator omillarning nisbiy avzalliklariga asoslanishi kerak bo'lgan qarorlar qabul qilishda yordam beradi va natijada ob'ektiv ravishda sinab ko'rish qiyin,masalan,ish va hayot muvozanati siyosati.Bundan tashqari,hukumatlar va boshqa inistitutlar qonunlar,qoidalar,tartiblar,ma'muriy harakatlar,rag'batlantirish va ixtiyoriy amaliyotlar ko'rinishidagi siyosatlarga ega.Ko'pincha resurslarni taqsimlashda siyosat qarorlari aks etadi.

Siyosat tabiatan takirorlanadigan/odatiy bo'lgantashkiliy faoliyatning rejasidir.

Bundan farqli o'laroq,ob'ektiv qarorlar qabul oilishda yordam beradigan siyosatlar,odatda,operatsion xususiyatga ega va ob'ektiv ravishda tekshirilishi mumkin,masalan,parol siyosati bunga misol bo'la oladi.

Bu atama hukumat,jamoat sektori tashkilotlari va guruhlariga,shuningdek,shaxslarga nisbatan qo'llanilishi mumkin,Prezidentning farmoishlari,korporativ mahfiylik siyosati va parlament tartib qoidalari siyosatiga misoldir.Siyosat qoidalari yoki qonunlaridan farq qiladi.Qonun xatti-harakatlarini majburlash yoki taqiqlashmumkin bo'lsada (masalan,daromad solig'ini to'lashni talab qiluvchi qonun) ,siyosat faqat kerakli natijaga erishish ehtimoli yuqori bo'lgan harakatlarga yo'naltiradi.

Siyosat va siyosatni o'rganish,shuningdrk,muhim tashkiliy qarorlarni qabul qilish jarayonida,jumladan,dasturlar yoki xarajatlarning ustivor yo'nalishlari kabi turli xil muqobilliklarni aniqlash va ularning ta'siriri asosida orasidan tanlashga ham tegishli bo'lishi mumkin.Siyosatni aniq maqsadlarga erishish uchun tuzilgan siyosiy,boshqaruv,miliyaviy va ma'muriy mexanizmlar deb tushunish mumkin.Davlat

korparativ moliyasida muhim bixgalteriya siyosati-bu firma/kompaniya yoki sanoat uchun juda yuqori sub'ektiv elementga ega bo'lgan moliyaviy hisobotga jiddiy ta'sir ko'rsatadigan siyosatdir.

Ichki siyosat.Tashqi siyosat.Mustaoillik tufayli O'zbekiston Respublikasining davlat siyosati yangicha ma'no va mazmun kasb eta boshladi.

Bugun mamlakatimizda xar-bir sahada keng ko'lamli islohatlar amalga oshirilib,jamiyatdagi dolzarb muammolarni bartaraf etish borasidagi ishlar jadal olib borilmoqda,yoshlarning xor tomonlama barkamol bo'lib voyaga yitishi va ta'lim –tarbiya olishi uchun shart-sharoit yaratilmoqda.

Prezidentimiz Shavkat Miromonovich 2016 yilda muvaqqat Prezident bo'lgan paytilarda birinchi bo'lib imzo chekkan va tasdiqlagan xujjat,aynan «yoshlarga oid davlat siyosati to'grisida»gi qonun edi.Bu esa davlatimiz rahbarining siyosati aynan yoshlar masalasidan boshlanganini bildiradi.Qolaversa 2017 yil 5-iyulda «Yoshlarga oid davlat siyosati samaradorligini oshirish va O'zbekiston yoshlar itfoqi faoliyatini qo'llab-quvatlash to'g'risida»gi Prezident farmoni bu boradagi ishlarni yangi bosqichga olib chiqdi va 30 iyun -«Yoshlar kuni » deb e'lon qilindi.

Bugun yurtimizda yoshlar soni 19 miliondan oshiq bo'lib,aholimizning katta qismini tashkil ermoqda.Mamlakat yoshlarining huquq va manfaatlarini ximoya qilish,ularga zarur shart-sharoitlar va imkoniyatlarni yaratib berish borasida mustahkam huquqiy baza yaratilgan hamda bu tizim zamon talablariga hamohang ravishda takomillashtirib borilmoqda.

Qolaversa,2017 yilda BMT Bosh assambliyasining 72 sessiyasida Prezidentimiz tomonidan ayni davrda insoniyat tarixida eng ko'p yoshlar qatlami bilan yashayotganimizni inobatga olgan holda, «Yoshlar xuquqlari to'g'risida BMT konvensiyasini qabul qilish» taklifi ilgari surilgani ham xalqaro xamjamiyat tomonidan iliq qarshilandi.Jumladan,ushbu anjumanda davlatimiz rahbari «Sayoramizning ertangi kuni,farovonligi farzandlarimiz qanday inson bo'lib kamolga yitishi bilan bog'liq.Bizning asosiy vazifamiz-yoshlar o'z salohoyatini namoyon qilishi uchun zarur sharoitlar yaratishdan iborat» -deb ta'kidlab o'tdilar.

Darhaqiqat,so'ngi 5 yil ichida,ushbu ishlar samarasini har birimiz kundalik hayotimizda guvoh bo'lmoqdami.Ayniqsa aholining ijtimoiy himoyaga muhtoj qatlamiga bo'lgan e'tibor yildan yil sayin ortib bormoqda.Birgina «Ayollar daftari» va «Yoshlar daftari» ro'yhati bo'yicha berilayotgan imtiyoz hamda ko'maklarni misol qilsak ham bo'ladi.Shu paytgacha aholini yordamga muhtoj qatlamiga bu qadar e'tibor berilmagani va ularning mavjud muammolari o'rganilmaganligini barchamiz yahshi bilamiz.Yordam to'lovi,biznes va tadbirkorlik uchun imtiyozli kreditlar ajratilishi,xaydovchilikni o'rganish uchun va muddatli xarbiy xizmat to'lovlarining davlat tomonidan qoplab berilishi yoshlarga chin ma'noda katta yordam bermoqda.Minglab yoshlarga har tomonlama ko'mak bermoqda.

Ularni qiynayotgan muammolar o'rganilmoqda. Xususan, Oliy Majlis Qonunchilik palatasi va Senat xuzurida Yoshlar parlamenti instituti tashkil etildi. Ushbu platforma shubhasis yoshlarimizning siyosiy-xuquqiy bilimlarini oshirishga va ularning o'z muammolari xamda manfaatlarini ifoda etishga yordam beradi. Qisqa fursat ichida ayniqsa, ta'lim sohasida amalga oshirilgan islohatlarni alohida e'tirof etish lozim. Hususan, maktabgacha ta'lim vazirligining tashkil etilishi, Oliy ta'lim tizmida 90 dan ortiq yangi oily o'quv yurtlari tashkil e'tilishi va ularga qabul qilinish tizimidagi o'zgarishlar, talaba bo'lish uchun mavjud imkoniyatlarning kengayganligi, aholi o'rtacha daromadining o'sishi va xokozolarni sanashimiz mumkin.

Sjg'lom va barkamol avlodni tarbiyalash, ularni mamlakatda amalga oshirilayotgan siyosiy, ijtimoiy va iqtisodiy islohatlarning faol va bevosita ishtirokchisi, jamiyatning haqiqiy tayanchi va suyanchiga aylantirish mamlakatimizning ustuvor va strategik vazifalaridan biri bo'lib qolmoqda. Xususan kiyingi 8 yilda yoshlar siyosati samaradorligiga oid jami 100 ga yaqin qonun va qonunosti xujjatlari, jumladan 2016 yil 14 sentyabrda O'zbekiston Respublikasining «Yoshlarga oid davlat siyosati to'grisida»gi qonun qabul qilindi. 2017 yil 30 iyunda O'zbekiston yoshlar itfoqi tashkil etilib, uning asosiy maqsadi yoshlarning barcha tashabuslarini qo'llab-quvatlash va amalga oshirishga qaratildi. O'z navbatida, Prezident taklifiga ko'ra, « O'zbekiston Respublikasida yoshlar kunini belgilash to'g'risida »gi qonun bilan 30 iyun-«Yoshlar kuni» deb elon qilindi.

Bugungi kunda hayotga izchillik bilan tadbiiq etilayotgan yoshlarga oid davlat siyosati yoshlarning zamon talablari darajasida ta'lim olishi, o'sib ulg'ayishi, o'z bilim va salohiyatini namoyon etishi uchun zarur sharoitlarni yaratishda muhim ahamiyat kasb etmoqda. Xususan mustaqil fikirlaydigan, milliy va umuminsoniy qadriyatlarga hurmat bilan qaraydigan, o'zining qat'iy hayotiy e'tiqot va qarashlariga ega bo'lgan, «halollik vaksinasi» bilan emlangan, milliy mentalitimizga yot zararli ta'sirlarga qarshi kurashga qodir yoshlarni tarbiyalashga xizmat qilmoqda. Shunday ekan, barchamiz ushbu sohaga munosib xissa qo'shishimiz va bir-birimizga ko'makdosh bo'lishimiz lozim. Zero kelajagimiz uchun har birimiz ma'sulmiz.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. III. Мирзияев «Harakatlar Strategiyasi» 2017-2021 O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha xarakatlar strategiyasi to'grisida **Farmon**.
2. O'zbekiston jamiyatini demokratlashtirish va yangilash, mamlakatni modernizatsiya qilish yo'lida – T: Akademiya, 2006.
3. O'zbekiston aholi turmush darajasining barqaror o'sishi / H. Abulqosimov va boshqalar. - T: Akademiya, 2011.
4. Chelovecheskoe razvitie: novoe izmerenie sotsal'no-ekonomicheskogo progressa: Uchebnik. - M.: MDU, PROON, 2008. - 636s.
5. Inson taraqqiyoti. Darslik. I.f.d., prof. Q. X. Abdurahmonov tahriri ostida. - T.: Fan va texnologiya, 2013. - 476s